



## “Sab’ayi Sayyor” Va “Haft Paykar”: Qoliplovchi Hikoyatlarning Qiyosiy Tahlili

*Zavqiyjon Fayzullayev*

Biz yuqorida sujetning paydo bo`lishi va Nizomiy Bahromi haqida fikr yuritganda ta`kidlaganimizdek, Nizomiy Bahromi birmuncha ishq borasida sovuqqonroq. Uning xarakteri taqdir zarbalarini yengilroq qabul qilishi bilan Navoiy Bahromidan farq qiladi. Keyin Nizomiy Fitna bilan Bahromning tanishuvi haqida hech narsa demaydi. Go`yoki u yuz yillardan beri shohning kanizagi bo`lgan. Xuddi Firdavsiyda bo`lganidek, ov tasviri bo`ladi.

Dediki: “Ko`p mashq etar shahriyor,  
Mushkul emas, takror o`lar ersa kor.  
Har neki ta`lim olar bo`lsa mard,  
Garchi qiyindur qilolmog`i shart.  
Go`r sumiga shoh o`qini urgani,  
Zo`rligimas, mashq qilib turgani”<sup>1</sup>.

G`azablangan Bahrom uni o`ldirmoqchi bo`ladi, lekin ayol kishini o`ldirish mardlarning ishimas deb, sherday tund bir lashkarboshiga Fitnani osishni buyuradi:

Davlatimiz fitnasi bu bedavo,  
Fitnani o`ldirki aqlga ravo.

Lashkarboshi kanizakni o`z uyiga eltib o`ldirmoqchi bo`lganda, u o`ldirmaslikni so`rab yolboradi. Bahromning may va ov ta`sirida shunday qarorga kelganligi, agar bir necha kun shoshmasa Bahromning bu ishdan pushaymon bo`lishini ta`kidlaydi. Unga o`ldirganligini aytishini, agar Bahrom xursand bo`lsa, o`limiga ham roziligini, xafa bo`lsa, jonini omon qoldirishini so`raydi.

Lashkarboshi rozi bo`ladi. Bahromga Fitnani yig`lab-yig`lab o`ldirganini aytganda shohning ko`ziga ham yosh keladi. Buni ko`rgan lashkarboshi Fitnaga shohning nomini kimsaga aytmassligini tayinlab, o`zining obod bir qishlog`iga olib boradi. U yerda bir sigir tug`adi. Uning buzog`ini Fitna bo`yniga olib zinapoyali baland ko`shkka chiqib tushadigan bo`ldi. Har kuni uni shu holda tomga olib chiqadigan bo`ldi. Buzoqcha olti yoshli ho`kiz bo`lganda ham qiynalmasdan tomga olib chiqar edi.

Bir kuni Fitna lashkarboshiga qulog`idagi sirg`alarini yechib berib ularni sotishni, puliga ovga chiqqan Bahromni chorlash uchun ziyofatga zarur barcha narsalarni olishni buyuradi. Ularning ichida qush, baliq, barra qo`y go`shtlari, ichimliklar bor edi.

Bahrom ovga chiqqan vaqtda lashkarboshi uni ming tavozu bilan uyiga taklif etadi. Ovdan so`ng uning uyiga tashrif buyurishini aytib, hamma narsani tayyorlab qo`y, - deydi. Shoh lashkarboshining uyidagi baland tog` bilan basma-bas turgan oltmish poyali pillapoyani ko`rib:

O`tgandan so`ng oltmish yil andoq,

<sup>1</sup> Osha asar, 354-bet



Oyoq qo'yib chiqasan qandoq?<sup>2</sup>

Mezbon esa mening bu poyalardan charchashim ajib holdir, ammo bir oydek qiz borki, bu oltmish poyani yelkasida biror kishi ko'tara olmaydigan filday ho'kizni ko'tarib tushib chiqadi, - dedi.

Bahrom bu holga qiziqadi. Buni bir mish-mishdir, deydi. Shunda kanizak o'z hunarini ko'rsatadi. Bahrom buni mashq natijasi deb aytganda, kanizak uning qilmishini kinoyali qilib eslatadi:

Dedi: "Shohg'a g'aromat azim  
Gov ta'lim-u go'rmi beta'lim?  
Menki tomga chiqardim ho'kiz,  
Mashq-u ta'lim deyilgay to'kis.  
Ne sabab sen qulon etsang ov,  
Nomin ta'lim deyolmas birov"<sup>3</sup>

Navoiyda esa voqealar boshqacharoq boshlanadi. Asosiy voqealar o'n ikkinchi bobdan ibtido topadi. Navoiy Bahromning ishqiy sarguzashtlariga keng o'rin ajratadi. Bu voqealar, albatta, Diloromni tanishdan boshlanadi.

Yetti iqlim shohi bo'lgan Bahrom ov qilib yurib, rassom Moniyi uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yo'q bir go'zal Dilorom haqida xabar berib, uning o'zi chizgan suratini shohga taqdim etadi. Shoh suratni ko'rishi bilan Diloromga oshiq bo'lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo bo'lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi. Firdavsiy "Shohnoma"da tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini "mashqning natijasi", – deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo'lini o'z sochlari bilan bog'lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi g'azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin, uni o'zi borib izlaydi, lekin topa olmaydi. Hijron azobidan o'zini butunlay yo'qotadi:

Joni ikki balo arosinda,  
Mo'r ikki ajdaho arosinda.  
Ne o'luk erdi, ne tirik soni,  
Bo'lmas erdi tirik demak oni<sup>4</sup>.

Shohning ahvoli og'irlasha boradi. Navoiy bu o'rinda shoh Bahromda endi chin ma'noda oshiqlik sifatlari paydo bo'layotganligiga e'tibor qaratadi, zero ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo'ladi. Iztirobdan o'zini butunlay yo'qotgan Bahromning avval falakka, so'ng xalqi va qo'shiniga murojaat qilib, notavon jonini bu azoblardan qutqarishini so'rab chekkan faryodlari dostonning 16- va 17-boblarida nihoyatda ta'sirli tarzda ifodalanganligini ko'ramiz:

Manga ne qilding, ey sipehr, oxir,  
Yo'q emish senda zarra mehr, oxir!  
Mehrsizlik ishim aro qilding,  
Ro'zgorim yuzin qaro qilding...  
Naylayin bu jahonni jonsiz men?  
Bal jahon birla jonni onsiz men?

<sup>2</sup> O'sha asar, 356-bet

<sup>3</sup> O'sha asar, 357-bet

<sup>4</sup> Yuqoridagi asar, 79-bet



Jonni olg' ilki, to'y misham, billoh!  
Ko'ngul o'lmakka qo'y misham billoh!..  
Yorliq qayda ketti, yoronlar?  
Yo'q musulmonliq, ey musulmonlar!  
O'lturub g'avrima yeting oxir!  
Ming o'lumdin xalos eting oxir<sup>5</sup>!

Nizomiy esa Bahromning Fitnaning o'ldirilganligi haqidagi xabarni ko'zda yosh bilan tingladi deydi, xolos. Unda boshqa o'zgarish sodir bo'lmaydi. Yana avvalgi turmushi, kundalik yumushlari, ov bilan band bo'lib yuraveradi.

Ikki shoirning kanizaklarining xarakterlari ham o'zgacha. Nizomiyning Bahromiga yarasha Fitna ham jasur, go'zal. Hatto uni o'ldirishga olib ketgan Sarhangni o'ldirmaslikka ko'ndiradi. Uning, ayniqsa, buzoqni to'ho'kiz bo'lgunicha tog'lar bilan bo'y bellashadigan boloxonaga olib chiqib, olib tushib yurgani, Bahromni chaqirishga jur'at topgani, aytgan gaplaridan also pushaymon bo'lmagani, unga o'zining qilmishini eslatib itob qilgani tahsinga sazovordir.

Navoiyning Diloromi esa o'zining Bahromiga munosib ko'ngli nozik, ta'sirchan. Bir muncha himoyasiz. Hattoki shoh Bahromning tahsinga sazovor ishini maqtamadim deb pushaymonlikda yashaydi. Hech kimni o'ziga mahram etmaydi. "Navoiy Diloromi – zo'r san'atkor, nozik qalbli, ishq'i zo'r, sadoqati mustahkam qiz. Navoiyda bu timsol har tomonlama ishlangan. Uning qiynalishi, iztiroblari, sinovlardan o'tishi haroratli misralarda tarannum etiladi"<sup>6</sup>

"Sab' ai sayyor" da Bahromning hijron azobidan saroy ahli tashvishga tushadilar. 400 hakim va tabib to'planib, ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh bir oz o'ziga kelganday bo'ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustida quriladi. Rassom Moniy uning har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo'lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Yetti qasr tasvirini o'qir ekanmiz, Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz<sup>7</sup>.

Nizomiyda ham yetti raqami, ranglar juda go'zal tasvir etiladi. Nizomiy dostonida ham ranglar qoradan oqqa tomon boradi. Lekin Bahromning kayfiyati emas, har bir hikoyatlarning qahramonlari kayfiyati va shakl-u shamoyilida o'zgarish bo'ladi. Ya'ni hikoyat so'ngida 3-gumbazda aytilgan hikoyat qahramoni Bushrining to'ni yashilga aylanadi. So'nggi hikoyat so'ngida oq rang haqida shoir shunday deydi:

Oqlik ila kunduz charog'on,  
Oy nuri-la yorishgay jahon.  
Barcha ranglar qorishiq mutlaq,  
Bulg'anmagan faqat rangi oq.  
Oludadir har neki navmed,  
Pokligining laqabi saped.

<sup>5</sup> Yuqoridagi asar, 81-83-betlar

<sup>6</sup> M.Муҳиддинов, Нурли қалблар гулшани. Тошкент: ФАН, 2007, 51-бет

<sup>7</sup> <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyni-anglash-korsatuvi.html>



Ibodotga uringanda xos,  
Sunnat erur kiymoq oq libos<sup>8</sup>

Navoiyning Bahromi birinchi hikoyani o'z ruhiy holati kabi qora qasrda, qora libosda tinglagan edi, chunki u o'z Diloromidan ayrilgan, hijron zulmatiga giriftor bo'lgan edi. Yettinchi hikoyani esa oq qasrda oq libosda tinglaydi va bu hikoyat unga visol umididan darak beradi, uning qalbiga yorug'lik olib kiradi. Lekin Bahrom Diloromni topgach, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni u saroy ahli, sonsiz qo'shin va Dilorom bilan katta ovga chiqqanida, yomg'ir yog'adi va eski botqoqning og'zi ochilib Bahromni Dilorom va butun arkoni davlati bilan birga yer yutadi.

«Haft paykar»da yetti hikoyatdan keyin Bahrom yana ayshga beriladi. Mamlakatda xarobalik yuz beradi. Chin xoqonining bostirib kelayotganini eshitgan Bahrom qo'shinini yig'moqchi bo'lganda 5 kishi ham chiqmaydi. Xazinaga kirsam, u bo'shab qolgan. Shu o'rinda vazir Rostravshan haqidagi fikrlarni beradi shoir:

O'z nomin aylab ul jaridadan istar,  
Rostu ravshan, rostu ravshan neki gar.  
Ravshanu rostligi bas borik,  
Rostligi kaju ravshanligi torik.  
Nek nomlikda shohga berib g'urur,  
O'zi neknomlikdan lek yiroqdurur.  
Vazirlik ishlarin chappa ko'chirdi,  
Rostliklaru ravshanlikni o'chirdi<sup>9</sup>.

U faqat o'zining xazinasini to'ldirish maqsadida har qanday fitnaga bosh qo'shar, bundan uyalmas, xalqni orzu talab bo'ldi, ularning ishi fitnadan iborat, juda sho'x-u gustox bo'ldi, ularning aql-u hushini kiritib qo'yish kerak, bizni pisand etmay qo'yan, ularni faqat tig' bilan bo'ysundirib turish kerak deb Bahromni aldaydi.

Podshohlik haqidagi shoirning fikrlariga diqqat qilamiz:

Shah agar mastu xasm hushyordir,  
Shah na gar uxlagan, o'g'ri bedordur,  
Siyosat aylashni chun shoh unutgay,  
Shohyeki siyoat yurgizar hushman,  
Yo'lidan qochadi dev ila dushman<sup>10</sup>.

Vazir shohga yomondan jonini, yaxshidan molini olishni so'rab, qachonki xalq xor-u zabun bo'lsa, mamlakat barqaror bo'ladi, deb xazinani to'ldirish uchun yangi xiroj joriy qilinishiga erishadi. Bundan foydalangan vazir xalqni yana ezadi. Ahvol yana tanglashadi. Odamlar uylarini tashlab chiqib keta boshlaydi. Agar shoh adolatli bo'lsagina qaytib hunarlarimizni qilamiz, deyishadi.

Ahvoli juda tarang Bahrom ovga chiqib cho'pon bilan uchrashadi. U o'zining itini osib qo'yan edi. Cho'pon ovchi (Bahrom) qarshisiga chiqadi. Unga biror narsa bilan mehmon qilolmasligini, chunki ahvoli podshohning dastidan abgorligini ta'kidlaydi.

<sup>8</sup> Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиқлол нури". 2016, 423-бет

<sup>9</sup> Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиқлол нури". 2016, 425-бет

<sup>10</sup> Юқоридаги асар, 425-бет



Bahrom undan nonni boshqa vaqt yerman, menga bo‘rilardan qo‘ylaringni himoya qiluvchi itingni nega osganingni aysang kifoya deydi.

Shunda:

Ey go‘zal yuz yigit deb aytdi pir,  
So‘zlayin ul ne o‘tdi birma-bir.  
Bu ko‘ppak edi posboni gala,  
O‘z ishim men unga etib havola.  
Vafodorligi-yu aminligidan,  
Shod edim menga hamnishinligidan.  
Yillar yo‘latmadi suruvga yaqin,  
O‘g‘ri qo‘lini-yu bo‘ri changalin.  
Men unga topshirib hif-u oshyonim,  
Itimmas sanardim uni cho‘ponim.  
U dandon-u changi ila dushmanso‘z,  
Temir qo‘lim edi meni shab-u ro‘z.

Cho‘pon itini ishim bo‘lsa, suruvni o‘zi olib chiqib, o‘zi uyga qaytarar edi. Bir necha yil rostbozlig-u rostsozlik qildi, deydi. Ammo bir kuni suruvni sanaganimda yetti bosh qo‘yni kam ko‘rdim. Bir haftadan keyin yana shuncha kamaygan edi. Bu haqda esa kimsaga aytmadim. Bir necha tunlar hushyor bo‘lib, raqibim kimligini kutib yotdim. Galasohib edim. Keyin esa cho‘pon bo‘lib qoldim. Bir kuni tushda uxlab dam olgach, bo‘rining modasi kelib itimni chaqirganini ko‘rdim:

To oxiri tutdim bo‘ri birla,  
Bog‘ladim xatosining zo‘ri birla<sup>11</sup>.  
Bevafo itni cho‘pon jazolashini ko‘rib, o‘zicha xulosa chiqaradi:  
Der edi o‘ziga: bu cho‘poni pir,  
Shohlikni o‘rgatdi, yasha botadbir.  
Ko‘rinishda asli odamiyatga  
Men cho‘ponman galayi raiyatga.  
Buki dasturi tezbinim mening,  
Himoyamda gala aminim mening.  
Chun bo‘lmadi asosi ishim durust,  
Kamchilikni topib tuzatayin chust.  
To aytsin xaroboti turmayin jim,  
Asli bunyodi bu xaroboti kim<sup>12</sup>,

Shaharga qaytgan shoh Bahrom gumashtalardan tutqunlar ro‘yxatini so‘raydi. Unda vazir o‘zini maqtab podshohni yomonlab yozdirgan edi. Bahrom ulug‘larni saroyga chorlab vazirga ayblarini

<sup>11</sup> Юкоридаги асар, 427-бет

<sup>12</sup> Юкоридаги асар, 427-бет



aytib, zindonga soldiradi. Zindondagilarni esa ayblarini yuvishlari uchun chiqaradi. Har biridan gunohi nima ekanligi-yu qayerlik ekanligini so'rab chiqadi. 1-mazlumning do'sti o'ldirilib, moli talangach, faryod qilgani uchun, 2-mazlum esa vazirga bog'ini sotmaganligi uchun, 3-mazlum sotish uchun keltirgan durning pulini so'ragani uchun, 4-mazlumning yorini olish uchun, 5-mazlumning munajjimlikdan topgan borini olish uchun, 6-mazlumning navkarligi uchun maosh so'raganidan, 7-mazlum duogo'y zohidni o'limini istashidan qo'rqib zindonband etgan ekan. Shoh ularning barini tinglaydi va o'zlarining haqini berib hukmdorlik vazifasini ado etadi. Shundan so'ng Rostravshanni dorga tortadi. Haqiqiy ahvolni bilib, xalq hayotini yaxshilashga erishadi. Buni eshitgan chin hoqoni ham Bahromdan uzr so'rab, Eronga bostirib kirish niyatidan qaytadi. Chunki xoin vazir uni aldagan edi. Shundan so'ng Bahrom aysh-u ishratni bas qiladi, qasrlarni ibodatxonaga aylantiradi. Ammo ovdan voz kechmaydi va navbatdagi ov kunlarining birida bir kiyik ketidan quvib borib, bir g'orga kirib ketadi va bedarak yo'qoladi.

Navoiy Bahromi bo'lib o'tgan voqealardan va tinglagan hikoyatlaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir qiyofada olib bormoqchi bo'ladi, aslida esa chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi:

Ishq ila shohlig' muvofiq emas,

Ishq lofida shoh sodiq emas.

Shu bilan birga shoh Bahromning halokatini tasavvuf ta'limotiga ko'ra yana shunday izohlash mumkin: Butun jonzotlar, tabiat, hayvonot va nabotot olami Allohning zuhuridir. Ularning barchasini Alloh yaratgan ekan, ularga zarar yetkazish Yaratgan irodasiga qarshi borish bilan tengdir. Shu ma'noda shoh Bahromning tabiatga yetkazgan jabr-zulmi uning halokatiga olib keldi<sup>13</sup>.

Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o'z davridagi ba'zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o'tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo'lishi zarurligi, xalq ahvolidan g'ofillik va aysh-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmoqchi bo'lgan muhim g'oyalardan biridir.

Nizomiy doston so'ngida kitobning xotimasi bilan yana podshoh Alouddin Karp Arslon duosini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Alisher Navoiy, Sab' ai sayyor, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 8-bet
2. Nizomiy Ganjaviy, "Xamsa". Toshkent: "Istiqlol nuri", 337-bet
3. М.Муҳиддинов, Нурли қалблар гулшани. Тошкент: ФАН, 2007, 36-37-бетлар
4. С.Ҳасанов, Навоийнинг етти тухфаси, Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашр. Матбаа бирлашмаси. 1991.
5. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyni-anglash-korsatuvi.html>

<sup>13</sup><http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyni-anglash-korsatuvi.html>